



## **TALABALARNING MUSIQIY-PEDAGOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KREATIVLIKNI JORIY ETISH YO'LLARI**

**Muallif:** Murotova Dilnavoz Uktamovna<sup>1</sup>, Yarashev Jo'rabek To'rayevich<sup>2</sup>

**Affiliatsiya:** Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti<sup>1</sup>, Buxoro davlat pedagogika instituti professori, p.f.f.d. (PhD)<sup>2</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14438015>

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada kreativlik, talabalarning kreativlik yo'llari, kreativ yondashuv asosida o'qitish, o'qitish jarayonida talabadan kreativ fikrlashni baholash modeli, kreativlikning foydali jihatlari keng va asosli yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qitsh, o'qitish, musiqa, pedagogika, faoliyat, rivojlanirish, kreativ, kreativlik, yo'l, vosita.

Har bir talabadagi kreativlikning rivojlanishi individual hisoblanadi. Kreativlik rivojlanishining sistemalilik faktori ta'larning ijtimoiylashuvi bo'lib hisoblanadi. Kreativlikning dastlabki ko'rinishlari har bir insonga xos. Biroq, u o'sayotgan, tarbiyalanayotgan, ta'limga olayotgan muhitdagi turli xil ta'qiqlar, sotsial shablonlar ijodiy faoliyatning blokirovka (yopilish)siga olib keladi. Talabada kreativlikning rivojlanishi uchun psixologik bosimlardan ozod qilib, ijobiy turtki berish lozim.

O'qitish faqat talabalarga bilim berishdan iborat emas, balki talabalarni o'rganishga qiziqarli va kutilmagam usullar bilan yondashishga o'rgatishdir. O'qitishning kreativ yondashuv asosida tashkil etish dars jarayoni samaradorligini kafolatlaydi. Kreativ yondashuv asosida o'qitish haqidagi fikrlar bayon etiladi.

O'qitishning birlamchi asosi qiziqarli dars hisoblanadi. O'qitish, o'z navbatida, bir butunlik bo'lib, quyidagi qismlardan tashkil topgan: ta'limga tarbiya beruvchi; ta'limga tarbiya oluvchi; dastur va darslik, o'quv-uslubiy qo'llanma hamda didaktik materiallar; pedagogik usul va uslublar, o'qitishning texnik vositalari hisoblanadi.

Har bir ta'limga muassasasida innovatsion hamda kreativ fikrlashga zarurat tug'diradigan global muammolarni hal qilish uchun innovatsion bilim va yaratuvchanlik qobiliyatiga tobora ehtiyoj sezilmoqda.

O'qitishning asosiy roli talabalarni jamiyatda muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur va kerak bo'ladigan sifatli ta'limga berish hisoblansa, kreativ fikrlash hozirgi yoshlarning rivojlanishi uchun zarur ehtiyojdir.

O'qitish jarayonida faqat ijodkor shaxslarni ajratib olish emas, aksincha talabalar g'oyalarini qidirish, ifodalashda kreativ fikrlash qobiliyatining o'qitish yondashuvi, ta'limga muassasasi ta'limga tizimining boshqa xususiyatlari bilan qanday bog'liqligini tavsiflaydi.

Kreativ- o'zi nima? Creato – lotincha so'z bo'lib "yaratuvchanlik", "ijodkorlik" ma'nolarini anglatadi.

Kreativlik ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon o'qituvchisi deb uning fikrlaridagi, alohida faoliyat turidagi ijodiy yondashishi, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi.

Kreativ fikrlash nima? Kreativ fikrlash – bu innovatsion va samarali echimlarni topish, yangi bilimlarni egallash, tasavvurni ta'sirchan ifodalashga qaratilgan g'oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirish jarayonida samarali rivojlantirish qobiliyatidir.

Kreativ fikrlash bizga muammolarni hal qilishda noan'anaviy echim topishga yordam beradi. Biroq biz buni tanqidiy fikrlash bilan adashtirib yubormasligimiz, aksincha bizga imkonsiz muammolarni hal qilishda bir-birini to'ldirib turuvchi echimlarni topishda yordam beradigan "aka-ukalar" dek qarashimiz kerak.

O'qitish jarayonida talabidan kreativ fikrlashni baholash modeliga ko'ra ilmiy muammolarni yoki ijtimoiy muammolarni hal qilish, kreativ g'oyalarni yozma yoki vizual ifodalash talab etiladi. O'qitish jarayonida kreativ fikrlashni baholashda turli g'oyalarni ishlab chiqish, kreativ g'oyalarni baholash va takomillashtirish kompetentligiga e'tibor qaratiladi.

Oliy ta'lif muassasasi talabalari o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar talabalarda muvaffaqiyatsizlikka uch rash, qo'rqlik hissi mayjud bo'lsa, fikrni noto'g'ri ifodalashdan hadiksirash, tanqidga uchasalar bunday vaziyatda ular kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. Talabalarda kreativlikni odanga aylantirish orgaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatl shakllantirish mumkin.

Bu jarayonda ular tominidan mavzu mazmuninong puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativ o'qitish jarayonida o'qituvchilar ushbu omillarni bartaraf etishga e'tibor qaratishlari lozim. Quyidagi omillar kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- O'zini tavakkaldan olib qochish;
- Fikrlash va hatti harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- Fantaziya va tasavvurning yuqori baholanmasligi;
- Boshqalarga tobe bo'lish;
- Har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash;

Talabalarni musiqiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirishda kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor shaxs bo'lishi zarur. Bordi-yu, uning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'limasa, u holda qanday qilib talabalarni kreativ fikrlashga o'rgata oladi.

Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: kreativ o'qitish jarayonida o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor bo'lsagina, o'quvchilar ham shunday bo'la oladi.

O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'limasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni o'qitish jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur. Ta'lif jarayonida o'qituvchi "kreativlik yo'l xaritasi" ga ko'ra

quyidagi to'rtta yo'naliш bo'yicha harakatlanadi va ularдаги harakatlar pedagoglarni kreativligini ifodalovchi belgilar sanaladi:

- 1) Ijodiy fikrlash ko'nikmalarini namoyon etish;
- 2) Talabalarni o'quv fanlarini qiziqish bilan o'zlashtrishlarida rag'batlantiruvchi metod va vositalardan foydalana olish;

3) Innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning echimini topishga kreativ yondashuv;

- 4) Kutiladigan natijasi;

Musiqiy – pedagogik faoliyatni rivojlantirishda kreativ potentsialiga ega bo'lishi uchun quyidagilarga e'tiborni qaratish zarur;

- Tafakkurning tezkorligi;
- Yangi g'oyalarni yara olish;
- Bir qolipda fikrlamaslik;
- O'ziga xoslik;
- Tashabbuskorlik va noaniqlikka toqat qilish;
- Zakovatli bo'lish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, talaba o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt o'z ustida ishslash orqali shakllantiriladi va u asta – sekin takomillashiб, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarda poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirilib boriladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: "Fan va texnologiyalar", 2009. – 236 – bet.

Abdukarimov R., Musiqa ta'llimida innovatsion pedagogika texnologiyalari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Pedagogika Instituti, 2019.

Xolmatov A., Ta'llim jarayonida musiqiy loyihalash texnologiyalari. Buxoro: Buxoro Davlat Pedagogika Universiteti, 2022.

Yarashev J. Murotova D. Musiqa o'qitish texnologiyasi va loyihalash. Buxoro davlat pedagogika instituti 2024.

